



ARTICLE INFO

Received: 10th December 2022

Accepted: 20th December 2022

Online: 21th December 2022

KEY WORDS

Leksika, leksik qatlam, o'zlashgan qatlam element, leksik elementlar, leksik fond.

Filologiya ilmidagi til leksik qatlamlari tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Ba'zi olimlar qatlam va lug'aviy qatlam terminlaridan keng foydalanib, bu termin asosida har xil til xodisalarini jamlaydilar¹. Ba'zi manbalarda tildagi arabcha, fors-tojikcha, ruscha - internatsional so'zlar qatlam termini va tushunchasiga tenglashtiriladi². Tilshunoslikda qatlam termini o'rniga «element», «leksik elementlar», «leksik fond», «leksika» atamalarini qo'llash ham uchraydi¹. Ayrim olimlar o'z qatlam va o'zlashgan qatlamni o'zbek tilining o'ziga xos leksik qatlamidir deb sharhlaydilar³.

«Yulduzli tunlar» romanining leksik qatlamlarini o'rganishda shu narsa namoyon bo'ldiki, tarixiy fakt va manbalarning, til vositalari (leksik-grammatik)ning berilishida yozuvchi

¹ Фахри Камол. Ҳозирги замон ўзбек тили -Тошкент: Ўзадабийнашр, 1953. 25-41-бетлар ;

Ҳозирги замон ўзбек тили - Тошкент: Фан, 1957. 89-99-бетлар.

² Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. - Тошкент: Фан, 1974. 24-бет.

³ Шоабдураҳмонов III. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. 120-127-бетлар.

PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA O'ZLASHGAN QATLAM SO'ZLARINING QO'LLANILISHI

Nazarov Zokir Muxammad o'g'li

Termiz davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi

Telefon: +998937616566

Email: znazarov@tersu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7467382>

ABSTRACT

Mazkur maqolada hozirgi zamon o'zbek tilshunosligidagi kam o'rganilgan muammolardan biri – Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar” romanida o'zlashgan qatlam so'zlarning qo'llanilishi, uning ma'nosi, tarkibi kabi jihatlarini yoritishni maqsad qildik.

adabiy til normalarining saqlanishiga alohida e'tibor bergan⁴.

Biz Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida o'zlashgan qatlam so'zlarning qo'llanilishi tahlil qilamiz.

Ulus (*mo'g'ulcha*: davlat; el, xalq) – 1) XI-XII asrlarda mo'g'ullar davlatida ma'lum bir no'yonga (mo'g'ul aslzodasiga) qarashli yerlarda unga tobe holda ko'chmanchilik bilan hayot kechiruvchi kata-kichik oilalar, urug'lar guruhi; 2) mug'ullar istilosi davrida bosib olinga hududlardan chingizxon farzandlariga bo'lib berilgan mulklar keyinchalik mustaqil davlatlarning nomi: Chig'atoy ulusi, Jo'ji ulusi; 3) el, xalq, xaloyiq; odamlar (bu yerda shu ma'noda kelgan): – Ulusning sho'ri qurisin – dedi Tohir. (P.Qodirov // “Yulduzli tunlar”)

Yaktak (*forscha*: bir qavat astarsiz kiyim) – uzun, ko'krak oldi ochiq, erkaklar ko'ylagi: Tohir yomg'irda ho'l bo'lib, badaniga yopishib turgan qalami yaktak ustida

⁴ Tohir Курбонов. Тарихий бадий асар ва давр тили масалалари. Монография. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.



hanjar taqib olgan edi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Tarh (*arabcha*) – qurish, imorat, bog'ning bichimi, loyihasi: Quvosoy botqog'ining ustida o'tgan mana shu uzun yog'och ko'prik ham mulla Fazliddin chizib bergan tarh qurilgan. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Koshin (*forscha*) kafel, koshin) – 1) chinniga o'xshatib ishlangan, yaltiroq, naqshli g'isht plitkasi; 2) bir biriga zich qilib yopishtirilgan rang-barang shisha, marmar, tosh yog'och va shu kabilardan yasalgan surat yoki naqsh: Andijon arkida mulla Fazliddin samoviy naqshlar va koshinlar bilan bezab qurgan devonxona tojkor Umarshayx mirzoga ma'qul bo'lgandan keyin unga to'bichoq ot va bir hamyon oltin in'om qilganini Tohir ham eshitgan. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

In'om – (*arabcha*: hadya ehson) 1) Tortiq qilib bergan narsa; hadya sovg'a: – Movlonoga bizdan bitta ot anjomi bilan in'om qilinsin. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Iftor (*arabcha*: nonushta qilish; ro'za ochish) – 1) ro'za kunlari shom paytida o'tkaziladigan ro'zani ochish, og'iz ochish marosimi; og'iz ochib ovqatlanish; 2) iftor vaqtida beriladigan ziyofat, mehmondorchilik: Tohir keksa ota-onasi bilan iftor qilmoqda edi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Musavvir (*arabcha*) – rassom; tasvirga suratga oluvchi. Turli tasvirlar ishlovchi; rasm chizuvchi ijodkor. Mulla Fazliddin uch yil Samarqandda, to'rt yil Hirotda tahsil ko'rgan, o'sha yoqdan me'morlik san'ati bilan birga musavvirlikni ham o'rganib kelgan edi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Orez (*forscha*: quyiluvchi, to'kiluvchi: obtova, obdasta; hojatxona) – uyning poytagida yoki dahlizda yuvinish, yuz-qo'l

yuvish uchun maxsus yasalgan, usti berk o'ra: Oyog'iga charm kovish kiyib obrez chetida bet-qo'lini yuvdi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Abo (*arabcha*: choponga o'xshash jun kiyim) – avrasi jun yoki boshqa matodan tikilgan uzun, keng, lekin yengi kalta erkaklar ust kiyimi: Uning chakmonidan o'tgan yomg'ir kalta yenglik abosini nam qilgan edi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Dug'lat – qadimiy turkiy qavmlardan biri. Asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan. Mo'g'uliston davlatiga itoat qilmagan dug'latlar o'z mustaqilliklari uchun betinim kurashib, Qashqarni egallaganlar: Qashqar hokimi Abubakr dug'lat degan yana bir bosqinchi sharqdan o'zgannning ustiga bostirib kelmishdir. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Unsiya – Hirot shahrida hazrat Alisher Navoiy yashagan uyga tarixiy manbalarda, jumladan, "Boburnomada" da ham "Unsiya" (Unsiya) – arabcha so'z bo'lib, ulfat, chin do'st degan ma'noni bildiradi.) deb nom bergani zikr etiladi. Ya'ni bu qutlug' dargoh do'stlar, ijod ahli, ustoz va shogirdlar surat quradigan ezgulik, xayr-u ehson hamda ilm-ma'rifat maskani hisoblangan: Bizdan yodgorlik bo'lib qolsa Ulug'bek madrasasidek, Navoiy unsiyasidek, san'at asarlari qolur! (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Nobakor – (*forscha*: ishga yaramaydigan; yovuz, battol; axloqsiz; bekorchi) – 1) xulq-atvori yurish-turishi xatti-harakati yomon odam; 2) yaramas, ablah, razil(asarda shu ma'noda qo'llangan): – To'xta, nobakor! – deb mulla Fazliddin bittasining qarshisida chiqqan edi, yuziga qora niqob yutgan ayiqday zo'r yigit uni yelkasi bilan urib chetlatdi-da, ko'chaga otildi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")



Shariat – (*arabcha*: to'g'ri yo'l; islom hukmlari, qonun qoidalari) – islom huquq tizmidagi musulmonlarning Qur'on asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy va fuqarolik qonun va qoidalari majmui. Agar shariat peshvolari uning odam suratini chizganini bilib qolishsa, so'g' qo'yishmaydi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Peshvo (*forscha*: rahnoma, rahbar; ustoz) – ma'lum bir soha yoki ishda yetakchi, ilg'or kishi. **Shariat peshvolari** – shariat qonun-qoidalari mukammal biladigan, u haqda yo'l-yo'riq ko'rsatadigan kishilar.

Shahvoniy (*arabcha*: hirsli, ehtirosli; shahvatparast) – shahvat va shahvatparaslikka oid, shahvat bilan bog'langan: Memorlikni muqaddas san'at deb ishongan mulla Fazliddin Yoqubbekning shahvoniy niyatlarini eshitib nafrati keldi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Ozurda (*forscha*) – xafa bo'lgan, ranjigan; xo'rlangan; qayg'uiga botgan, mayus: – Albatta, bu gap shu yerda qolur! Lekin siz ham mendan ozurda bo'lmang.

Ko'sanamo (*forscha*: ko'sa ko'rinishli) – ko'saga o'xshash, soqol-muylovi siyrakroq: Yoshi yigirma beshlardan oshgan bo'lsa ham yuziga hali durust soqol chiqmagan, ko'sanamo Ahmad Tanbal og'zini memorning qulog'iga yaqinlashib shivirladi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Buzdil (*forscha*) echkiyurak, qo'rqqoq. E, men buzdilarda emasmen! Deb Ahmat Tanbal qahr bilan o'rnidan turdi va yirik tishlarini iljaytirib qo'shib qo'ydi: – Lekin siz mening shahtimni qaytarganingiz uchun hali pushaymon bulursiz.

Dorug'a (*mug'ulcha*: "darga" – rais, boshliq; "daraxt" – tobi qilmoq, yengmoq) – shahar posponlari sardori; bosh mirshab, shahar idorasi boshlig'i: Mulla Fazliddin ertalab podshoh in'om qilgan to'bichoq otni

mindida, shahar dorug'asi qabul qiladigan mahkamaga yo'l oldi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Gustaxona (*forscha*: beadab; dadil qo'rqmas) – odobsiz, beadab; beandisha, sorbet; betakalluf: "Bu taxt-u saltanatlar benom-u nishon yo'qolur, faqat me'mor-u musavvirlar yaratgan zo'r san'at asarlari tirik qolur", degan gustaxona aqidalar bizga ma'lum! Bu yerda surbetlik ma'nosida kelgan. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Alhol (*arabcha*) – hozirda, shu paytda, ayni vaqtda: Siz meni bosqinchilardan himoya qilish o'rniga ayg'oqchilarning tuhmatigai shonadigan bo'lsangiz, men alhol axsiga borib, Mirzo hazratlariga arz qilurmen!.. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Kadxudo (*forscha*: qishloq oqsoqoli) – 1) kent boshlig'i, qishloq oqsoqoli. 2) el-xalq o'rtasida gap-so'zi o'tadigan keksa kishi; mahalla oqsoqoli: – Bilmasam, kadxudo guzarda ishontirib aytdi. "Podsho hazratlari yo'lda erta-indin himoyamizga yetib kelishlari aniq!" – dedi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Xobgoh (*forscha*) – uxlash xonasi, yotoqxona; ko'rpa yostiq: Axsining hukmroni Umarshayx mirzo bu kecha haramda o'n sakkiz yoshlik Qorako'z begimning xobgohida uxlab yotibdi. Bu yerda yotoqxona ma'nosida kelgan.

Parqu to'shak (*forscha*: oqqush pari, pati) – 1) oqqushning pari bilan to'ldirilgan to'shak; 2) par solib tikilgan to'shak. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")

Tanobiy (*arabcha+forscha*: katta umumiy xona, mehmonxona, zal) – umumiy bino, imoratda boshqalariga nisbatan katta, maxsus bezatilgan va mehmonlar kutib oladigan xona: Xobgohda ikki xona narida hashamatli tanobiy uyda allaqachon tuzatib qo'yilgan dasturxon Mirzoga muntazir edi. (P.Qodirov // "Yulduzli tunlar")



Choshnagir (forscha) – podshoning dasturxonga qaraydigan xodima yoki dasturxonchi: Tashqari eshikdan tazim qilib kirgan choshnagir ayol qurquv bilan pasaytirib xabar berdi. (P.Qodirov // “Yulduzli tunlar”)

Ma’jun (arabcha) – 1) dorivor aralashma; o’simliklardan olinadigan, tarkibida giyohvand modda bo’lgan aralashma; 2) turli zirovorlarga afyun qo’shib tayorlagan va quvvat darmon beradigan dori: Sham yorug’i Mirzoning yuziga tushdi. Ammo bu ham uni uyg’otolmadi – Mirzo kechasi majun yegan edi. (P.Qodirov // “Yulduzli tunlar”)

Ark (forscha: ichi qal’a) – poytaxtdagi qasr; xon yoki amrning atrofi baland devor bilan o’ralgan qo’rg’on saroyi: Arkdan tashqari masjidning imomi koshinlik minoraga chiqib, bakovulning ishorasini sabrsizlik bilan kutayapti. (P.Qodirov // “Yulduzli tunlar”)

Meshkob (forscha) – meshda suv tashuvchi: Qal’a baland tepalikda turgani uchun unga suv chiqmas, suvni mishkobchilar tashib keltirishar edi. (P.Qodirov // “Yulduzli tunlar”)

Rikobdor (forscha) – uzangichi; temirchilik bilan shug’ullanuvchi hunarmand: Mirzo otni to’xtatdi. Orqadagi mulozimlardan ikkitasi: rikobdor bilan

jilovdor tez otdan tushdi. (P.Qodirov // “Yulduzli tunlar”)

Chiniy kaburtar (forscha) – xitoy kabutari: U havorang chiniy kabutarni qo’liga olib, yog’och zina bilan kabutarxonaning tomiga chiqdi. (P.Qodirov // “Yulduzli tunlar”)

Ihota (arabcha) – o’rab olish; devor; qamrab olish. Atrofni to’sish, himoya uchun o’rash, to’sish va shu maqsaddagi to’siq; himoyaning o’zi; qurshov: Qo’rg’onning qo’l yetmas balandlikka qurilganidan va atrofi chuqur o’ngurlar bilan ihota qilinganidan alohida bir mamnuniyat sezdi. (P.Qodirov // “Yulduzli tunlar”)

Sadaf (arabcha) marvarid chig’anog’i: Mazidbek sopiga sadaf qadalgan yoy o’qini nishondan avaylab sug’irib oldi-da, qanchalik chuqur botganini barmog’i bilan o’lchab ko’rdi. (P.Qodirov // “Yulduzli tunlar”)

Ko’kaldosh, emikdosh (forscha) – bir onani emgan bolalar. Bobur mirzoning navkarlari, yarog’bardor, tengdosh-ko’kaldosh, mulozimlari ham nishon atrofiga yig’ildilar. (P.Qodirov // “Yulduzli tunlar”)

Demak, yuqorida keltirilgan misollardan ma’lumki, o’zlashgan qatlam so’zlar o’zbek tili leksikasining boyish manbasi hisoblanadi.

References:

1. Фаҳри Камол. Ҳозирги замон ўзбек тили -Тошкент: Ўзадабийнашр, 1953. 25-41-бетлар ;
2. Фаҳри Камол. Ҳозирги замон узбек тили - Тошкент: Фан, 1957. 89-99-бетлар.
3. Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. - Тошкент: Фан, 1974. 24-бет.
4. Шоабдурахмонов III. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. 120-127-бетлар.
5. P. Qodirov Yuluzli tunlar / romon / “Adabiy barhayot asarlar” turkumi – T.: “Navruz”, 2019. – 576-b.
6. Davidov Y. J. KO’P MA’NOLILIK HODISASINING YUZAGA KELISH YO’LLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 500-503.



7. Nadim, H. M. (2019). Etnolingvistika va etnografik leksika haqida. Молодой ученый, (30), 147-149.
8. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o'zbek tili. (leksikalogiya). O'quv qo'llanma / - T.: "Firdavshoh nashriyoti", 2021. -380 b.